Registered in Germany Europa Revue Journal
ISSN: 1862-6564 Vol. 6 No. 11 (2026) Published November 25, 2026

IMPROVING PROCEDURAL AND LEGAL MECHANISMS FOR PROTECTING ATTORNEY-CLIENT CONFIDENTIALITY IN CRIMINAL PROCEEDINGS

Bazarova Sarvinozxon Sanjar qizi
Tashkent State University of Law Master's student in Advocacy

Abstract

This article examines the theoretical and legal foundations of protecting attorney-client confidentiality in criminal proceedings, procedural safeguards under Uzbek legislation, and challenges arising in their implementation. Particular attention is paid to the amendments introduced by Law No. ZRU-1182 of 14 October 2026. Drawing on French and German legislation, Austrian experience, and the case law of the European Court of Human Rights, the article proposes mechanisms for independent procedural screening of confidential materials, preventing their unlawful use, and protecting the rights of third parties.

Keywords

legal profession, attorney-client confidentiality, legal professional privilege, lawyer's immunity, criminal proceedings, search, seizure, digital evidence, admissibility of evidence, judicial oversight.

JINOYAT PROTSESSIDA ADVOKATLIK SIRINI HIMOYA QILISHNING PROTSESSUAL-HUQUQIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Bazarova Sarvinozxon Sanjar qizi - Toshkent davlat yuridik universiteti
Advokatlik faoliyati mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada jinoyat protsessida advokatlik sirini himoya qilishning nazariy-huquqiy asoslari, milliy qonunchilikda belgilangan protsessual kafolatlar hamda ularni amalga oshirish bilan bog‘liq huquqiy muammolar tadqiq etilgan. O‘zbekiston Respublikasining 2026-yil 14-oktabrdagi O‘RQ-1182-son Qonuni bilan jinoyat-protsessual qonunchilikka kiritilgan o‘zgartirishlar advokatning daxlsizligi va kasbiy maxfiyligini ta’minlash nuqtayi nazaridan tahlil qilingan. Fransiya, Germaniya va Avstriya tajribasi hamda Inson huquqlari bo‘yicha Yevropa sudi amaliyoti asosida advokatlik sirini tashkil etuvchi ma’lumotlarni mustaqil protsessual

saralash, ulardan noqonuniy foydalanishning oldini olish va uchinchi shaxslarning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: advokatura, advokatlik siri, kasbiy maxfiylik, advokatning daxlsizligi, jinoyat protsessi, tintuv, olib qo‘yish, raqamli dalillar, dalillarning maqbulligi, sud nazorati.

KIRISH

Demokratik huquqiy davlatda inson huquq va erkinliklarini samarali himoya qilish, qonun ustuvorligini ta’minlash hamda odil sudlovni amalga oshirishda advokatura instituti alohida o‘rin tutadi. Advokatlik faoliyatining samaradorligi, avvalo, advokat va ishonch bildiruvchi shaxs o‘rtasidagi o‘zaro ishonchga asoslangan munosabatlarning huquqiy jihatdan kafolatlanganligiga bog‘liq.

Advokatlik siri mazkur munosabatlarning ajralmas elementi bo‘lib, shaxsning malakali yuridik yordam olish, o‘z huquqlarini himoya qilish hamda shaxsiy hayoti daxlsizligini ta’minlashga xizmat qiladi. Ishonch bildiruvchi shaxs o‘zi taqdim etgan ma’lumotlarning maxfiy saqlanishiga ishonmasa, advokatga ishning barcha holatlarini to‘liq bayon etmasligi mumkin. Bu esa advokat tomonidan samarali huquqiy yordam ko‘rsatilishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 29-moddasida har kimning malakali yuridik yordam olish huquqi, 31-moddasida shaxsiy hayot daxlsizligi, yozishmalar va boshqa xabarlarning sir saqlanishi huquqi mustahkamlangan. Konstitutsiyaning 142-moddasida advokatning kasbiy faoliyatiga aralashishga yo‘l qo‘yilmasligi, uning himoyasidagi shaxs bilan moneliksiz va xoli uchrashishi uchun zarur shart-sharoitlar ta’minlanishi belgilangan.

Mazkur konstitutsiyaviy normalar advokatlik sirini nafaqat advokatning kasbiy majburiyati, balki inson huquqlarini ta’minlashning muhim huquqiy kafolati sifatida baholash imkonini beradi.

Bugungi kunda advokatlik faoliyatining raqamlashtirilishi natijasida kasbiy maxfiylikni ta’minlash bilan bog‘liq yangi huquqiy muammolar yuzaga kelmoqda. Advokatning kompyuteri, mobil telefoni, elektron pochta manzili va boshqa axborot tizimlarida bir vaqtning o‘zida bir nechta mijozlarga tegishli maxfiy ma’lumotlar

saqlanishi mumkin. Advokatga nisbatan tergov harakatlari amalga oshirilganda, muayyan jinoyat ishiga aloqador bo‘lmagan boshqa shaxslarning maxfiy ma’lumotlariga ham kirish xavfi mavjud.

Shu jihatdan, advokatlik sirini himoya qilishning protsessual-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish zamonaviy advokatura institutining dolzarb ilmiy va amaliy masalalaridan biri hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda formal-yuridik, qiyosiy-huquqiy, tizimli tahlil, mantiqiy tahlil, induksiya, deduksiya hamda huquqiy modellashtirish usullaridan foydalanildi.

Formal-yuridik usul orqali O‘zbekiston Respublikasining advokatura va jinoyat-protsessual qonunchiligi o‘rganildi. Qiyosiy-huquqiy usul yordamida Fransiya va Germaniya jinoyat-protsessual qonunchiligida belgilangan maxfiylik kafolatlari hamda Avstriyaga oid Yevropa sudi amaliyoti tahlil qilindi.

Huquqiy modellashtirish usuli asosida advokatlik sirini himoya qilishning qo‘shimcha protsessual mexanizmlari shakllantirildi.

MAVZUNING O‘RGANILGANLIK DARAJASI

Advokatlik siri institutining huquqiy tabiati, kasbiy maxfiylikning chegaralari hamda uni ta’minlash kafolatlari milliy va xorijiy huquqshunos olimlarning ilmiy tadqiqotlarida o‘z ifodasini topgan.

O‘zbekistonlik tadqiqotchi K.F. Hakimova o‘zining “Важные аспекты адвокатской тайны в уголовном процессе: законодательство Узбекистана и международный опыт” nomli ilmiy maqolasida jinoyat protsessida advokatlik sirini himoya qilishga oid milliy qonunchilik, xalqaro standartlar, Fransiya va Germaniya tajribasini qiyosiy tahlil qilgan. Muallif protsessual kafolatlarni kuchaytirish hamda advokatlik sirini buzganlik uchun javobgarlik mexanizmlarini takomillashtirish zarurligini asoslagan.

Rossiyalik huquqshunos olim Yu.S. Pilipenko “Адвокатская тайна: теория и практика реализации” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida advokatlik sirining huquqiy tabiati, uning jinoyat protsessidagi ahamiyati va huquqni muhofaza qiluvchi

organlar tomonidan advokatlik faoliyatiga noqonuniy aralashish bilan bog‘liq muammolarni kompleks tadqiq etgan.

Mazkur olimlarning ilmiy qarashlari asosida advokatlik siri institutini faqat advokatning axloqiy yoki kasbiy majburiyati sifatida emas, balki davlat tomonidan himoya qilinishi lozim bo‘lgan protsessual-huquqiy kafolat sifatida baholash mumkin.

Mening fikrimcha, advokatlik sirini samarali himoya qilish uchun uchta o‘zaro bog‘liq mexanizm mavjud bo‘lishi lozim:

Birinchidan, maxfiy axborotga noqonuniy kirishning oldini oluvchi preventiv mexanizmlar.

Ikkinchidan, tergov harakatlari davomida maxfiy ma’lumotlarni himoya qiluvchi protsessual mexanizmlar.

Uchinchidan, advokatlik siri buzilgan taqdirda uning oqibatlarini bartaraf etish va buzilgan huquqlarni tiklashga qaratilgan mexanizmlar.

Ushbu maqolaning avvalgi tadqiqotlardan farqli jihati 2026-yilda jinoyat-protsessual qonunchilikka kiritilgan yangi normalar asosida advokatlik sirining protsessual himoyasini qayta baholash hamda advokatga nisbatan tergov harakatlari amalga oshirilishi natijasida boshqa ishonch bildiruvchi shaxslarning maxfiy axborotiga zarar yetkazilishining oldini olish mexanizmlarini ishlab chiqishdan iborat.

TAHLIL VA NATIJALAR

1. Advokatlik sirini himoya qilishning milliy huquqiy asoslari

O‘zbekiston Respublikasining 1996-yil 27-dekabrdagi 349-I-son “Advokatura to‘g‘risida”gi Qonunining 9-moddasida advokatlik sirining mazmuni belgilangan.

Mazkur normaga ko‘ra, shaxsning advokatga murojaat qilganligi, murojaat qilishga sabab bo‘lgan masalalar, olingan huquqiy maslahatlarning mazmuni hamda advokat bilan suhbat davomida muhokama qilingan holatlar advokatlik siri hisoblanadi.

Advokatlik sirini oshkor etmaslik majburiyati advokatning o‘zi bilan bir qatorda uning yordamchisi, stajyori hamda advokatlik tuzilmasining tegishli xodimlariga ham tatbiq etiladi.

O‘zbekiston Respublikasining 1998-yil 25-dekabrdagi 721-I-son “Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to‘g‘risida”gi Qonunining

6-moddasi advokatning shaxsiy daxlsizligi bilan birga uning turar joyi, xizmat xonasi, transport vositalari, aloqa vositalari, yozishmalari, ashyolari va hujjatlarining daxlsizligini ham kafolatlaydi.

Mazkur Qonunning 7-moddasida advokatdan, uning yordamchisi va stajyoridan advokatlik siri hisoblangan holatlar yuzasidan ko‘rsatuv yoki tushuntirish talab qilish, shuningdek tegishli maxfiy materiallarni taqdim etishni talab qilish taqiqlangan.

Bundan tashqari, Jinoyat-protsessual kodeksining 115-moddasi birinchi qismi 2-bandiga muvofiq, himoyachi va ayrim protsess ishtirokchilarining vakillari o‘z protsessual vazifalarini bajarishlari natijasida bilib olgan holatlar yuzasidan guvoh yoki jabrlanuvchi sifatida so‘roq qilinishi mumkin emas.

Ushbu normalarning mazmunidan kelib chiqib, milliy qonunchilikda advokatlik sirini ta’minlashning quyidagi asosiy kafolatlari mavjudligini ko‘rish mumkin:

– advokatlik sirini oshkor etishni taqiqlash;

– kasbiy faoliyatga noqonuniy aralashishga yo‘l qo‘ymaslik;

– advokatning shaxsiy va kasbiy daxlsizligini ta’minlash;

– kasbiy faoliyat davomida ma’lum bo‘lgan ayrim holatlar yuzasidan so‘roq qilishni taqiqlash;

– advokatga nisbatan protsessual harakatlarni amalga oshirishning maxsus tartibini belgilash.

Biroq mazkur kafolatlarning amaliy samaradorligi protsessual harakatlar davomida maxfiy axborotning qanday tartibda ajratilishi va undan foydalanish masalasi qanday hal etilishiga ham bog‘liq.

2. Jinoyat-protsessual qonunchilikdagi yangi normalarning advokatlik siriga ta’siri

O‘zbekiston Respublikasining 2026-yil 14-oktabrdagi O‘RQ-1182-son Qonuni bilan Jinoyat-protsessual kodeksiga daxlsizlik va immunitetga ega bo‘lgan shaxslarga nisbatan jinoyat ishlarini yuritishning o‘ziga xos xususiyatlarini tartibga soluvchi 59^{1}-bob kiritildi.

JPKning 546^{3}-moddasida advokatlar daxlsizlikka ega bo‘lgan shaxslar qatorida belgilangan.

Kodeksning 546[10]-moddasida advokatning turar joyi, xizmat xonasi, aloqa vositalari, ashyolari va hujjatlariga nisbatan protsessual harakatlarni amalga oshirish uchun vakolatli prokurorning sanksiyasi yoki sudning qarori talab etilishi nazarda tutilgan.

Mazkur norma advokatga nisbatan tergov harakatlarini amalga oshirishning maxsus protsessual tartibini mustahkamlaydi.

JPKning 546[11]-moddasi esa daxlsizlik va immunitet talablariga rioya etilmagan holda olingan dalillarning nomaqbulligi hamda tegishli protsessual qaror va harakatlarning qonunga xilof deb hisoblanishi bilan bog‘liq oqibatlarni belgilaydi.

Shu bilan birga, mazkur moddaning uchinchi qismida unda nazarda tutilgan oqibatlar daxlsizlik yoki immunitet huquqi buzilgan shaxsning o‘ziga nisbatan amal qilishi belgilangan.

Ushbu normani advokatlik faoliyati xususiyatlari nuqtayi nazaridan tahlil qilish muhim ilmiy masalani yuzaga keltiradi. Chunki advokatning daxlsizligi buzilishi natijasida faqat advokatning o‘ziga emas, balki uning kasbiy xizmatlaridan foydalangan boshqa shaxslarga ham zarar yetkazilishi mumkin.

Masalan, advokat A.ga nisbatan jinoyat ishi doirasida uning xizmat xonasida tintuv o‘tkazilgan va kompyuteri olib qo‘yilgan deb faraz qilaylik. Mazkur kompyuterda advokatga nisbatan yuritilayotgan jinoyat ishiga aloqador hujjatlardan tashqari, boshqa mijozlarning jinoyat, fuqarolik, iqtisodiy va oilaviy nizolariga oid maxfiy hujjatlar ham saqlangan.

Bunday vaziyatda advokatga nisbatan tintuv o‘tkazishning qonuniyligi barcha mijozlarga tegishli ma’lumotlar bilan cheklanmagan tarzda tanishish uchun asos bo‘lib xizmat qilmasligi kerak.

Advokatga nisbatan jinoyat ishi qo‘zg‘atilganligi uning boshqa mijozlarini advokatlik siri bilan bog‘liq kafolatlardan avtomatik ravishda mahrum qilmaydi.

JPKning 546[11]-moddasida nazarda tutilgan maxsus oqibatlarning shaxsiy doirasi cheklanganligi boshqa mijozlarga tegishli maxfiy axborotning protsessual himoyasini alohida tadqiq etish zaruratini keltirib chiqaradi.

Albatta, ushbu holat boshqa mijozlarning ma’lumotlaridan foydalanish amaldagi qonunchilikka muvofiq avtomatik ravishda qonuniy hisoblanishini anglatmaydi. Dalillar maqbulligiga oid umumiy normalar va advokatlik siri to‘g‘risidagi talablar ham qo‘llanilishi lozim.

Biroq advokatlik siri hisoblangan materiallarni dastlabki bosqichda mustaqil saralash, bahsli axborotni vaqtincha ajratib saqlash va uning protsessual maqomini sud tartibida hal etishning maxsus mexanizmini belgilash maqsadga muvofiq.

3. Advokatlik sirini himoya qilish bo‘yicha xalqaro standartlar va xorijiy tajriba

BMTning 1990-yilda qabul qilingan Advokatlar roliga oid asosiy prinsiplarining 22-bandida davlatlar advokatlar va ularning mijozlari o‘rtasidagi kasbiy munosabatlarga oid muloqot va maslahatlarning maxfiyligini tan olishi hamda hurmat qilishi zarurligi belgilangan.

Mazkur prinsip advokatlik sirini himoya qilishni advokatlarning shaxsiy imtiyozi sifatida emas, balki yuridik yordamning samaradorligini ta’minlovchi umumiy kafolat sifatida baholash imkonini beradi.

Fransiya tajribasi.

Fransiya Jinoyat-protsessual kodeksining 56^{1}-moddasida advokatning xizmat xonasi yoki turar joyida tintuv o‘tkazishga oid maxsus protsessual tartib nazarda tutilgan.

Mazkur tartibga ko‘ra, advokatlar professional birlashmasi rahbari - bâtonnier yoki uning vakili tintuvda ishtirok etadi. U muayyan hujjat yoki ashyoning olib qo‘yilishini qonunga xilof deb hisoblasa, e’tiroz bildirishi mumkin.

E’tiroz bildirilgan material muhrlangan holda ajratiladi hamda masalani hal etish uchun sudyaga yuboriladi. Sudya material olinganidan keyin besh kun ichida asoslantirilgan qaror qabul qiladi.

Agar materialni olib qo‘yish uchun asos mavjud emasligi aniqlansa, uning qaytarilishi hamda tegishli protsessual qaydlarning bekor qilinishi nazarda tutiladi.

Fransiya tajribasining muhim jihati shundan iboratki, maxfiy axborotni himoya qilish masalasi faqat tergov organining ixtiyoriga topshirilmaydi. Advokatura vakilining e'tirozi va sud nazorati orqali qo'shimcha protsessual kafolat yaratiladi.

Germaniya tajribasi.

Germaniya Jinoyat-protsessual kodeksining 97-paragrafida kasbiy sir bilan bog'liq ayrim yozishmalar, qaydlar va boshqa materiallarni olib qo'yishdan himoya qilish qoidalari belgilangan.

Mazkur kodeksning 160a-paragrafida advokatga nisbatan kasbiy sir hisoblangan axborotni olishga qaratilgan ayrim tergov choralarining taqiqlanishi nazarda tutiladi.

Qonunda belgilangan shartlar asosida himoyalangan axborot olingan taqdirda undan foydalanish taqiqlanadi, tegishli qaydlar yo'q qilinadi hamda axborotning olinganligi va yo'q qilinganligi ish materiallarida qayd etiladi.

Shu bilan birga, Germaniya qonunchiligida advokatning o'zi jinoyatda ishtirok etganligini ko'rsatuvchi muayyan faktlar mavjud bo'lganda yoki qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda mazkur kafolatlardan istisnolar ham belgilangan.

Germaniya tajribasi advokatlik sirini himoya qilishda axborotning noqonuniy olinishini taqiqlash bilan bir qatorda uning keyingi ishlatilishini cheklash mexanizmi ham muhim ekanligini ko'rsatadi.

Avstriya tajribasi va Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudi amaliyoti.

Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudining 2012-yil 3-iyuldagi "Robathin v. Austria" ishi advokatlik faoliyatiga oid elektron ma'lumotlarni himoya qilish nuqtayi nazaridan muhim ahamiyatga ega.

Mazkur ishda advokatning xizmat xonasida tintuv o'tkazilib, uning elektron ma'lumotlari olingan. Yevropa sudi barcha elektron ma'lumotlarni tekshirish uchun yetarli darajada aniq va asoslantirilgan sabablar mavjud bo'lmaganligini aniqlagan.

Natijada sud Inson huquqlari bo'yicha Yevropa konvensiyasining 8-moddasi buzilgan degan xulosaga kelgan.

Ushbu sud qarori advokatning elektron qurilmasidagi barcha axborotni umumiy tartibda tekshirish bilan muayyan jinoyat ishiga aloqador ma'lumotlarni maqsadli tekshirish o'rtasidagi farqni ko'rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Yevropa konvensiyasining ishtirokchisi bo‘lmaganligi sababli mazkur sud qarori mamlakatimiz uchun bevosita majburiy huquqiy manba hisoblanmaydi. Biroq undan qiyosiy-huquqiy tajriba va milliy qonunchilikni rivojlantirish uchun ilmiy manba sifatida foydalanish mumkin.

1-jadval. Advokatlik sirini himoya qilish mexanizmlarining qiyosiy tahlili [6, 7, 9, 10].

Taqqoslash mezoni	**O‘zbekiston**	**Fransiya**	**Germaniya**
Huquqiy asos	JPK 546[10], 546[11]-moddalar	JPK 56-1-modda	JPK 97, 160a-paragraflar
Maxsus protsessual kafolatlar	Mavjud	Mavjud	Mavjud
Advokatura vakilining tintuvdagi maxsus ishtiroki	546[10]-moddada alohida belgilanmagan	Nazarda tutilgan	Ushbu paragraflarda belgilanmagan
Bahsli maxfiy materiallarni muhrlash va sudga yuborish	Maxsus tartib taklif etilmoqda	Mavjud	Ushbu normalarda aynan bunday tartib belgilanmagan
Bahsli material yuzasidan qaror muddati	5 sutka taklif etilmoqda	5 kun	Ushbu normalarda maxsus muddat belgilanmagan
Himoyalangan axborotdan foydalanishni taqiqlash	Umumiy va maxsus kafolatlar mavjud	Maxsus kafolatlar mavjud	160a-paragrafda nazarda tutilgan

4. Advokatlik sirini himoya qilishning protsessual mexanizmlarini takomillashtirish istiqbollari

Milliy qonunchilik va xorijiy tajribaning qiyosiy tahlili asosida quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi.

Birinchi taklif. Advokatlik sirini tashkil etuvchi materiallarni mustaqil protsessual saralash mexanizmini joriy etish.

Advokatga nisbatan tintuv va olib qo‘yish amalga oshirilganda, tergov qilinayotgan jinoyat ishiga aloqador materiallar bilan boshqa ishonch bildiruvchi shaxslarning maxfiy ma’lumotlari o‘rtasidagi chegarani aniqlash zarur.

Advokat yoki Advokatlar palatasi vakili muayyan materialning advokatlik siri ekanligini asos qilib e’tiroz bildirgan taqdirda, ushbu material vaqtincha ajratib saqlanishi hamda uning protsessual maqomi tergov sudyasi tomonidan hal etilishi maqsadga muvofiq.

Mazkur mexanizm qonuniy tergov faoliyatiga to‘sqinlik qilmasdan, jinoyat ishiga aloqador bo‘lmagan shaxslarning huquqlarini himoya qilishga xizmat qiladi.

Ikkinchi taklif. Raqamli ma’lumotlarni maqsadli tekshirishning maxsus protsessual tartibini belgilash.

Advokatga tegishli elektron qurilmalardan ma’lumot olish jarayonida tegishli protsessual qarorda tekshiriladigan ma’lumotlarning doirasi, zarur hollarda vaqt chegarasi, muayyan jinoyat ishiga aloqadorligi va izlash mezonlari ko‘rsatilishi lozim.

Texnik zarurat sababli elektron qurilmadan to‘liq nusxa olingan taqdirda ham, bu undagi barcha ma’lumotlar bilan tergov organining cheklanmagan tartibda tanishishi mumkinligini anglatmasligi kerak.

To‘liq nusxani maxsus himoyalangan sharoitda saqlash, tegishli materiallarni ajratish va tergov organiga faqat foydalanishga qonuniy asos mavjud bo‘lgan ma’lumotlarni taqdim etish tartibini ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Uchinchi taklif. Advokatlik siri buzilishining protsessual oqibatlarini boshqa ishonch bildiruvchi shaxslarga nisbatan ham aniqlashtirish.

Advokatning daxlsizligi buzilishi natijasida boshqa mijozlarga tegishli maxfiy ma’lumotlar olingan taqdirda, mazkur ma’lumotlardan foydalanishning qonuniyligi alohida baholanishi kerak.

Advokatlik siri talablarini buzgan holda olingan axborotdan foydalanishni taqiqlash, qonuniy asos bo‘lmagan materiallarni qaytarish yoki tegishli protsessual tartibda yo‘q qilish, ushbu harakatlarni bayonnomada qayd etish mexanizmini belgilash taklif etiladi.

Bunda qonun buzilganligini tasdiqlovchi materiallarning saqlanishi hamda shikoyat qilish huquqining amalga oshirilishi uchun zarur kafolatlar ta’minlanishi lozim.

QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISH BO‘YICHA TAKLIF

O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksini quyidagi mazmundagi 546^{12}-modda bilan to‘ldirish taklif etiladi:

546^{12}-modda. Advokatga nisbatan tergov harakatlarini amalga oshirishda advokatlik sirini himoya qilish

Advokatga nisbatan tintuv, olib qo‘yish, ko‘zdan kechirish hamda elektron ma’lumotlarni olish bilan bog‘liq tergov harakatlari amalga oshirilganda advokatlik siri hisoblangan va yuritilayotgan jinoyat ishiga aloqador bo‘lmagan ma’lumotlarning maxfiyligi ta’minlanishi shart.

Advokatning kasbiy faoliyati bilan bog‘liq materiallar olinishi nazarda tutilgan tintuv va olib qo‘yishda Advokatlar palatasining hududiy boshqarmasi vakili ishtirok etadi. Vakil maxfiy materiallarni olib qo‘yishga nisbatan e’tiroz bildirishga hamda ushbu e’tirozning bayonnomaga kiritilishini talab qilishga haqli.

Olinayotgan ashyo, hujjat yoki elektron ma’lumotning advokatlik siriga taalluqliligi yoxud undan protsessual maqsadlarda foydalanishning qonuniyligi yuzasidan nizo kelib chiqqan taqdirda, ushbu material muhrlangan yoki axborotdan foydalanishni cheklovchi boshqa himoyalangan shaklda ajratib saqlanadi.

Bahsli materialdan foydalanish masalasi tergov sudyasi tomonidan material kelib tushgan kundan e’tiboran besh sutka ichida hal etiladi. Sud qarori qabul qilingunga qadar tergov organining bahsli material mazmuni bilan tanishishiga va undan protsessual maqsadlarda foydalanishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Advokatlik siri hisoblangan elektron ma’lumotlarni ajratish zarur hollarda tegishli mutaxassis ishtirokida, maxfiylik talablariga rioya etgan holda amalga oshiriladi.

Sud tomonidan olib qo‘yish yoki foydalanish uchun qonuniy asos mavjud emas deb topilgan materiallar qaytarilishi, ularning nusxalari esa shikoyat qilish va qonun buzilganligini tekshirish uchun zarur protsessual kafolatlar ta’minlanganidan so‘ng qonunda belgilangan tartibda yo‘q qilinishi lozim.

Mazkur moddaning qoidalari advokatning o‘zi jinoyat sodir etganligi yuzasidan qonuniy tergov olib borilishiga to‘sqinlik qilish uchun asos bo‘lmaydi.

XULOSA

O‘tkazilgan tadqiqot natijasida advokatlik siri institutining samarali faoliyat yuritishi shaxsning malakali yuridik yordam olish huquqi, himoyalanish huquqi va odil sudlov kafolatlari bilan uzviy bog‘liq ekanligi aniqlandi.

Milliy qonunchilikda advokatlik sirini himoya qilishning konstitutsiyaviy, tashkiliy va protsessual kafolatlari mavjud. Xususan, 2026-yilda Jinoyat-protsessual kodeksiga kiritilgan yangi normalar advokatlarning daxlsizligini protsessual jihatdan ta’minlashning huquqiy asoslarini mustahkamladi.

Shu bilan birga, advokatga nisbatan tergov harakatlari amalga oshirilganda uning boshqa mijozlariga tegishli maxfiy ma’lumotlarni himoya qilish, aralash elektron axborotni mustaqil saralash va maxfiy materiallarning protsessual maqomini sud tartibida aniqlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish zarurati mavjud.

Fransiya tajribasi advokatura vakilining protsessual ishtiroki va bahsli materiallar ustidan sud nazoratining ahamiyatini, Germaniya tajribasi himoyalangan axborotdan noqonuniy foydalanishni cheklash zaruratini, Avstriyaga oid Yevropa sudi amaliyoti esa elektron ma’lumotlarni olishda mutanosiblik prinsipiga rioya etish muhimligini ko‘rsatadi.

Muallifning fikricha, advokatlik sirini himoya qilishning samaradorligi faqat tergov harakatlarini amalga oshirish uchun maxsus ruxsat olish bilan cheklanmasligi, balki maxfiy axborotga kirish, uni saralash, undan foydalanish, saqlash va qaytarish jarayonlarini ham qamrab olishi lozim.

Taklif etilayotgan protsessual mexanizmlar advokatning mustaqilligini mustahkamlash, ishonch bildiruvchi shaxslarning huquqlarini himoya qilish hamda jinoyatlarni tergov qilish manfaatlari bilan kasbiy maxfiylik o‘rtasida oqilona huquqiy muvozanatni ta’minlashga xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023-yil 30-aprel. 29, 31, 141 va 142-moddalar. **https://lex.uz/docs/-6445145**

2. Хакимова К. Важные аспекты адвокатской тайны в уголовном процессе: законодательство Узбекистана и международный опыт // Общество и инновации. – 2025. – Том 6. – Специальный выпуск 7. – С. 116–128. **https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol6-iss7/S-pp116-128**

3. Пилипенко Ю.С. Адвокатская тайна: теория и практика реализации: автореф. дис. ... д-ра юрид. наук. – Москва, 2009. **https://www.lawtheses.com/advokatskaya-tayna-teoriya-i-praktika-realizatsii**

4. O‘zbekiston Respublikasining 1996-yil 27-dekabrdagi 349-I-son “Advokatura to‘g‘risida”gi Qonuni. **https://lex.uz/docs/-54503**

5. O‘zbekiston Respublikasining 1998-yil 25-dekabrdagi 721-I-son “Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to‘g‘risida”gi Qonuni. **https://lex.uz/docs/-29626**

6. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. **https://lex.uz/docs/-111460**

7. O‘zbekiston Respublikasining 2026-yil 14-oktabrdagi O‘RQ-1182-son Qonuni. **https://lex.uz/docs/-8537007**

8. United Nations. Basic Principles on the Role of Lawyers. Havana, 1990. Principles 8, 22. **https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/basic-principles-role-lawyers**

9. Code de procédure pénale de la République française. Article 56-1. **https://www.legifrance.gouv.fr/codes/article_lc/LEGIARTI000044568203**

10. Strafprozessordnung der Bundesrepublik Deutschland. §§ 97, 160a. https://www.gesetze-im-internet.de/stpo/__97.html ; **https://www.gesetze-im-internet.de/stpo/__160a.html**

11. European Court of Human Rights. Robathin v. Austria. Application No. 30457/06. Judgment of 3 July 2012. **https://hudoc.echr.coe.int/eng?i=001-111890**